



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъйинлар, усуллар ва замонвий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131
20.	Doniyev Shahob O'tkir o'g'li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
21.	Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta'minlash	142
22.	Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
23.	Mirmahmudova Xusniddinovna Nozima	O'zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160





24.	Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta‘minotini boshqarish usullari	167
25.	Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlari	179
26.	Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag‘batlantirishni takomillashtirish	191
27.	Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
28.	Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta‘minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
29.	Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
30.	Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225
31.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlari	232
32.	Uralov Elshod Sirojiddin o‘g‘li	Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlari	240
33.	Qodirov Bahodir Qudratovich	Bevosita soliq solishni optimallashtirish va yashillashtirish masalalari	245
34.	Agabekyan Roza Samvelovna	O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish	251
35.	Ерманова Камила Рустамовна	Цифровые финансовые инструменты в системе финансирования креативных индустрий: переоценка возможностей и ограничений	258
36.	Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna	Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodlarining rivojlanish bosqichlari	267
37.	Kalandarov Jamolbek Ravshonovich	O‘zbekistonda mikro, kichik va o‘rta biznesni kreditlash dinamikasi: 2026 yil yarim yillik natijalari va Silk Road Finance & Technology forum kontekstidagi tahlil	274
38.	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning huquqiy boshqaruv arxitekturasini takomillashtirish	280
39.	Sulaymonov Iskandar Boxodir o‘g‘li	Venchur kapital jalb etish samaradorligi indeksi (VKJSI): davlat va xususiy kapital multiplikativ samaradorligini baholash modeli	287
40.	Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li	Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish	294
41.	Salamov Islom Tashkazakovich	Banklarning transformatsion jarayonlarini ekonometrik tahlili	304
42.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	O‘zbekiston fond bozorida “Xalq IPO”si mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish yo‘llari	312
43.	Radjabova Malikaxon	Elektron tijorat faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati va ahamiyati	323





44.	Sultanova Gulshira Alimbetovna	Suv taqchilligi sharoitida sholichilik tarmogʻining innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy yoʻnalishlari (Qoraqalpogʻiston Respublikasi misolida)	332
45.	Jumaniyazov Inojon Turayevich	Suveren fondlar samaradorligini baholashning truman-bagnall metodologiyasi	339
46.	Abdullayev Dilmurod Toxirmirzayevich	Davlat maqsadli jamgʻarmalari xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini oʻtkazishni takomillashtirish	350
47.	Abdushayitov Abdumannobbek Abdumutal oʻgʻli	Tashabbusli budjet xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish masalalari	357
48.	Zokirov Sardor Toʻlqin oʻgʻli	Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning oʻrni	362
49.	Asrorov Dalerjon Zafarovich	Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari	368
50.	Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologiyasi	374





HUDUDLARGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING O‘RNI

Zokirov Sardor To‘lqin o‘g‘li

*Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o‘rni tadqiq etilgan. Raqamli infratuzilmaning hududlarning investitsion jozibadorligini shakllantirishdagi iqtisodiy ahamiyati, xususan, internet va telekommunikatsiya tarmoqlari, raqamli davlat xizmatlari, ma‘lumotlarni uzatish tizimlari hamda raqamli platformalarning investorlar qarorlariga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, raqamli infratuzilmaning investitsiya jarayonlarida axborot almashinuvi tezligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va investorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantirishdagi imkoniyatlari asoslangan. Hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovutlarni qisqartirish va infratuzilmaviy imkoniyatlarni kengaytirish xorijiy kapital oqimini oshirishning muhim sharti sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: raqamli infratuzilma, xorijiy investitsiyalar, hudud, investitsion jozibadorlik, raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya, internet, raqamli xizmatlar, investitsion muhit, raqamli transformatsiya.

РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНЫ

Зокиров Сардор Тулкин угли

*Независимый соискатель
Ташкентского государственного
экономического университета*

Аннотация. В статье исследуется роль цифровой инфраструктуры в привлечении иностранных инвестиций в регионы. Раскрыто экономическое значение цифровой инфраструктуры в формировании инвестиционной привлекательности регионов, в частности влияние интернет- и телекоммуникационных сетей, цифровых государственных услуг, систем передачи данных и цифровых платформ на инвестиционные решения. Также обоснованы возможности цифровой инфраструктуры в ускорении информационного обмена в инвестиционных процессах, снижении транзакционных издержек, упрощении управленческих процедур и формировании благоприятной бизнес-среды для инвесторов. Сокращение цифрового разрыва между регионами и расширение инфраструктурных возможностей рассматриваются как важные условия увеличения притока иностранного капитала.

Ключевые слова: цифровая инфраструктура, иностранные инвестиции, регион, инвестиционная привлекательность, цифровая экономика, телекоммуникации, интернет, цифровые услуги, инвестиционная среда, цифровая трансформация.

THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO REGIONS

Zokirov Sardor Tulkin ugli

*Independent Researcher at
Tashkent State
University of Economics*





Abstract. *This article examines the role of digital infrastructure in attracting foreign investment to regions. It highlights the economic significance of digital infrastructure in shaping regional investment attractiveness, particularly the impact of internet and telecommunication networks, digital public services, data transmission systems, and digital platforms on investment decisions. The article also substantiates the potential of digital infrastructure to accelerate information exchange in investment processes, reduce transaction costs, simplify administrative procedures, and create a favorable business environment for investors. Reducing the digital divide between regions and expanding infrastructure capacities are considered important conditions for increasing foreign capital inflows.*

Keywords: *digital infrastructure, foreign investment, region, investment attractiveness, digital economy, telecommunications, internet, digital services, investment environment, digital transformation.*

Kirish.

Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, ish o'rinlarini yaratish va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning muhim omillaridan biridir. Xorijiy investorning hududni tanlash qarorida bozor sig'imi, xomashyo va mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, institutsional muhit bilan bir qatorda infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida raqamli infratuzilma hududlarning investitsion jozibadorligini belgilovchi yangi omil sifatida shakllanmoqda.

Raqamli infratuzilma keng polosali internet, mobil aloqa tarmoqlari, ma'lumotlarni uzatish tizimlari, bulutli texnologiyalar, ma'lumotlar markazlari va raqamli davlat xizmatlarini o'z ichiga oladi. Mazkur infratuzilmaning rivojlanganligi xorijiy investorlarning axborotdan tezkor foydalanishi, biznes jarayonlarini masofadan boshqarishi, elektron xizmatlardan foydalanishi hamda hududdagi hamkorlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilma investitsiya loyihalarini amalga oshirishda vaqt va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, boshqaruv jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini oshiradi.

Hududlar o'rtasidagi raqamli infratuzilma tafovutlari esa xorijiy investitsiyalarni taqsimlashda qo'shimcha nomutanosibliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Raqamli imkoniyatlari rivojlangan hududlar texnologik va yuqori qo'shilgan qiymatli loyihalar uchun ko'proq jozibador bo'lsa, raqamli infratuzilmasi yetarli bo'lmagan hududlarda investorlar uchun qo'shimcha xarajatlar va operatsion risklar shakllanadi. Shu sababli raqamli infratuzilmani rivojlantirish hududiy investitsiya siyosatining tarkibiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Mazkur maqolada hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o'рни, uning investorlar qarorlariga ta'siri hamda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishdagi iqtisodiy ahamiyati yoritiladi.

Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini shakllantirishda tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Internet tarmoqlarining kengayishi, axborot-kommunikatsiya xizmatlarining rivojlanishi va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining ortishi investorlar uchun hududda biznes yuritish sharoitlarini yaxshilaydi. Ayniqsa, xorijiy investorlar uchun tezkor axborot almashinuvi, elektron xizmatlardan foydalanish, masofaviy boshqaruv va raqamli to'lov tizimlarining mavjudligi investitsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligini oshiruvchi omillar hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

2018–2025-yillar davomida O'zbekistonda raqamli infratuzilmaning asosiy





ko'rsatkichlarida izchil ijobiy dinamika kuzatilgan. Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni va 100 aholiga to'g'ri keladigan abonentlar ko'rsatkichi muntazam ravishda oshgan. Shu bilan birga, axborot va aloqa xizmatlari hajmining sezilarli darajada kengayishi raqamli iqtisodiyotning rivojlanayotganini ko'rsatadi. Mazkur jarayon xorijiy investitsiyalar hajmining o'sishi bilan bir davrga to'g'ri kelayotgani raqamli infratuzilma va investitsion faollik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

1-jadval

O'zbekistonda raqamli infratuzilmaning rivojlanish dinamikasi, 2018–2025-yillar⁴⁸

Yil	Internet tarmog'iga ulangan abonentlar, mingta	100 aholiga to'g'ri keladigan internet abonentlari	Axborot va aloqa xizmatlari hajmi, mlrd so'm	Xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm
2018	13 321,7	40,4	11 874,7	30 154,8
2019	16 386,2	48,8	12 507,4	85 437,2
2020	19 981,0	58,4	15 861,1	89 758,8
2021	22 987,2	65,8	20 353,8	101 371,2
2022	26 723,6	75,0	27 938,0	113 864,3
2023	30 061,0	82,6	39 734,2	201 692,1
2024	32 138,7	86,5	56 865,2	351 846,5
2025	36 195,1	94,7	79 485,5	433 881,8

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2018–2025-yillarda internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni 13 321,7 mingtadan 36 195,1 mingtagacha oshgan. Bu qariyb 2,7 baravar o'sishni anglatadi. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi davrda internetdan foydalanish ko'lami tez kengaygan. Internet abonentlari sonining bunday o'sishi aholining, tadbirkorlik subyektlarining va investorlarning raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi.

100 aholiga to'g'ri keladigan internet abonentlari soni ham izchil oshib, 2018-yildagi 40,4 tadan 2025-yilda 94,7 tagacha yetgan. Ya'ni, mazkur ko'rsatkich 54,3 birlikka oshgan. Bu raqamli qamrov darajasining yuqorilayotganidan dalolat beradi. Investor nuqtayi nazaridan bunday tendensiya hududda raqamli xizmatlar uchun bozor shakllanayotganini va aholining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengayayotganini anglatadi.

Axborot va aloqa xizmatlari hajmida yanada yuqori o'sish kuzatilgan. 2018-yildagi 11 874,7 mlrd so'mdan 2025-yilda 79 485,5 mlrd so'mgacha oshgan mazkur ko'rsatkich qariyb 6,7 baravar ko'paygan. Ayniqsa, 2022–2025-yillarda xizmatlar hajmi jadal o'sib, 27 938,0 mlrd so'mdan 79 485,5 mlrd so'mgacha yetgan. Bu raqamli xizmatlarga bo'lgan talab va iqtisodiyotning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog'liqligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi ham keskin o'sgan. 2018-yildagi 30 154,8 mlrd so'mdan 2025-yilda 433 881,8 mlrd so'mgacha yetgan ushbu ko'rsatkich qariyb 14,4 baravar oshgan. Eng yuqori o'sish 2023–2025-yillarda qayd etilgan: 2023-yilda 201 692,1 mlrd so'm, 2024-yilda 351 846,5 mlrd so'm va 2025-yilda 433 881,8 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Ko'rsatkichlar dinamikasini birgalikda baholash raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va xorijiy investitsiyalar oqimi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Biroq jadval ma'lumotlari to'g'ridan-to'g'ri sabab-oqibat munosabatini isbotlamaydi. Xorijiy investitsiyalar o'sishiga iqtisodiy islohotlar, bozor hajmi, infratuzilmaning boshqa turlari, soliq siyosati va institutsional muhit kabi omillar ham ta'sir qiladi. Shunga qaramay, raqamli infratuzilmaning yaxshilanishi investorlar uchun hududning biznes yuritish sharoitlarini sezilarli darajada qulaylashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

2018–2025-yillardagi dinamika O'zbekistonda raqamli infratuzilmaning izchil rivojlanishini va bu jarayon investitsion faollikning oshishi bilan bir vaqtda kechganini ko'rsatadi. Internet abonentlari sonining qariyb 2,7 baravar, axborot va aloqa xizmatlari hajmining 6,7

⁴⁸ <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





baravar, xorijiy investitsiya va kreditlarning esa 14,4 baravar oshishi ijobiy tendensiyadir. Kelgusida hududlar oʻrtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish, yuqori tezlikdagi internet qamrovini kengaytirish va raqamli xizmatlar sifatini oshirish xorijiy investorlar uchun hududlarning jozibadorligini yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, raqamli infratuzilmani rivojlantirishni faqat internet qamrovini oshirish bilan cheklamasdan, bulutli texnologiyalar, maʼlumotlar markazlari, elektron davlat xizmatlari, raqamli toʻlov tizimlari va IT xizmatlari bilan kompleks ravishda bogʻlash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, investitsion salohiyati yuqori, biroq raqamli infratuzilmasi nisbatan sust hududlarga ustuvor investitsiyalar yoʻnaltirilishi hududlar oʻrtasidagi tafovutni kamaytiradi. Natijada raqamli muhitning yaxshilanishi yangi investitsiya loyihalarini jalb qilish, mavjud korxonalar faoliyatini kengaytirish va hududlarning xalqaro investitsiya bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

2-jadval

Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmani baholash koʻrsatkichlari⁴⁹

№	Koʻrsatkich	Oʻlchov birligi	Investitsion jozibadorlikka taʼsiri	Baholash yoʻnalishi	Tavsiya etiladigan vazn, %
1	Internet tarmogʻiga ulangan abonentlar soni	mingta	Ijobiy	↑	20
2	100 aholiga toʻgʻri keladigan internet abonentlari	birlik	Ijobiy	↑	15
3	Axborot va aloqa xizmatlari hajmi	mlrd soʻm	Ijobiy	↑	15
4	Axborot va aloqa sohasiga investitsiyalar	mlrd soʻm	Ijobiy	↑	15
5	Raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi	%	Ijobiy	↑	10
6	AKT sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soni	dona	Ijobiy	↑	10
7	Xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi	mlrd soʻm	Natijaviy koʻrsatkich	↑	10
8	Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni	dona	Natijaviy koʻrsatkich	↑	5
	Jami				100

Mazkur jadval hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning holatini baholash uchun zarur boʻlgan asosiy koʻrsatkichlar tizimini ifodalaydi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida investorlar hududni tanlashda nafaqat tabiiy resurslar, mehnat xarajatlari va bozor hajmiga, balki raqamli aloqa imkoniyatlari, internet qamrovi, elektron xizmatlar va AKT sektorining rivojlanganlik darajasiga ham eʼtibor qaratmoqda. Shu sababli raqamli infratuzilma hududlarning xorijiy kapital uchun raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Jadvalda eng yuqori 20 foizlik vazn internet tarmogʻiga ulangan abonentlar soniga berilgan. Ushbu koʻrsatkich hududdagi raqamli ulanish imkoniyatlarining umumiy koʻlamini ifodalaydi.

⁴⁹ <https://stat.uz/uz/> maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





Abonentlar sonining ko'pligi aholining, tadbirkorlik subyektlarining va investorlarning raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengligini bildiradi. 100 aholiga to'g'ri keladigan internet abonentlari ko'rsatkichiga 15 foiz vazn berilishi esa hududlar o'rtasidagi aholi soni bo'yicha farqlarni hisobga olish imkonini beradi. Shu jihatdan ushbu ikki indikator birgalikda hududning raqamli qamrovini yanada aniqroq baholashga xizmat qiladi.

Axborot va aloqa xizmatlari hajmi hamda axborot va aloqa sohasiga investitsiyalarning har biriga 15 foizdan vazn ajratilgan. Birinchi ko'rsatkich hududda raqamli xizmatlar bozorining rivojlanganlik darajasini, ikkinchisi esa ushbu sohaning moddiy-texnik bazasiga yo'naltirilayotgan kapital miqdorini aks ettiradi. Investitsiyalarning ko'payishi yangi telekommunikatsiya tarmoqlari, ma'lumotlarni uzatish tizimlari va zamonaviy raqamli xizmatlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Natijada investorlar uchun biznes jarayonlarini tashkil etish va boshqarish imkoniyatlari kengayadi.

Raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi 10 foiz vazn bilan baholanmoqda. Ushbu indikator hududda raqamli texnologiyalarning amaliy qo'llanish ko'lamini ko'rsatadi. Elektron davlat xizmatlari, raqamli to'lovlar, onlayn biznes xizmatlari va boshqa elektron platformalardan foydalanishning yuqori darajasi ma'muriy jarayonlarni tezlashtirib, investorlarning vaqt va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi.

AKT sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soniga ham 10 foiz vazn berilgan. Bu ko'rsatkich hududda raqamli biznes muhiti va texnologik ekotizim shakllanganligini ifodalaydi. AKT korxonalarining ko'pligi mahalliy xizmat ko'rsatuvchilar, texnologik hamkorlar va malakali mutaxassislar mavjudligini anglatib, xorijiy kompaniyalar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi.

Jadvaldagi xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi hamda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni esa natijaviy ko'rsatkich sifatida ajratilgan. Ularning mos ravishda 10 va 5 foizlik vaznlarda berilishi raqamli infratuzilmaning investitsion natijalar bilan bog'liqligini baholash imkonini beradi. Bunda mazkur ikki indikatorni raqamli infratuzilmani shakllantiruvchi omillardan alohida ko'rish metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi, chunki ular raqamlashtirishning bevosita natijasidan ko'ra, hududning umumiy investitsion jozibadorligini ifodalovchi yakuniy ko'rsatkichlar sifatida xizmat qiladi.

Umuman, jadvalda ko'rsatilgan vaznlar yig'indisi 100 foizni tashkil etadi. Ushbu tizim asosida ko'rsatkichlarni standartlashtirish va belgilangan vaznlarga ko'paytirish orqali hududlarning raqamli infratuzilma bo'yicha integral indeksini hisoblash mumkin. Natijada hududlarni raqamli infratuzilmasi yuqori, o'rtacha yoki past darajadagi guruhlariga ajratish va har bir guruh uchun tegishli investitsiya siyosatini ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli infratuzilmani rivojlantirishni xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati bilan bevosita bog'lash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, internet qamrovi va raqamli xizmatlari nisbatan past bo'lgan hududlarda infratuzilmaviy loyihalarga ustuvorlik berish, AKT korxonalarini qo'llab-quvvatlash va elektron investitsiya xizmatlarini kengaytirish hududlarning xalqaro investorlar uchun jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilma hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda. Internet va telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganligi, raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, ma'lumotlarni tezkor uzatish va raqamli biznes jarayonlarini amalga oshirish imkoniyatlari investorlar uchun hududning jozibadorligini oshiradi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, elektron tijorat, moliyaviy texnologiyalar va boshqa texnologik yo'nalishdagi loyihalarni joylashtirishda raqamli infratuzilmaning sifati alohida ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosatida raqamli infratuzilmani rivojlantirish faqat texnik tarmoqlarni kengaytirish bilan cheklanmasligi kerak. Yuqori tezlikdagi internet, mobil aloqa, ma'lumotlar markazlari, raqamli davlat xizmatlari va investitsion axborot tizimlarini yagona ekotizimga birlashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, raqamli





infratuzilmasi nisbatan past hududlarda davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, investorlar uchun raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish xorijiy kapital oqimini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonun. O'RQ-598-son, 2019-yil 25-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida. PF-158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-6079-son Farmon, 2020-yil 5-oktabr.
4. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
5. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990.
6. Czernich, N., Falck, O., Kretschmer, T., Woessmann, L. Broadband Infrastructure and Economic Growth // The Economic Journal. — 2011. — Vol. 121. — №552. — P. 505–532.
7. Forman, C., Goldfarb, A., Greenstein, S. The Internet and Local Wages: Convergence or Divergence? // National Bureau of Economic Research. — Cambridge, 2012.
8. Goldfarb, A., Tucker, C. Digital Economics // Journal of Economic Literature. — 2019. — Vol. 57. — №1. — P. 3–43.

